# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№9

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*
*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*



*Elektron nashr,*
*396 sahifa, sentyabr, 2025-yil.*

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Shakarov Zafar G‘afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay’ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo‘taboyev Mahammadjon To‘ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Botirali Roxataliyevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Tursunov Ulug‘bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o‘g‘li,** Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo‘raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal


05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.


Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

# MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish ............... 12
**Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li**

Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari ........................................................ 19
**Usmonov Abbos Valijon o'g'li**

Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises.................................... 23
**Sheraliev Axhror Sodiqovich**

Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish ............... 30
**Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi**

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslari ........................................................................................................................................ 37
**Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich**

Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi ............................ 42
**Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li**

Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari ........................................................................................................................................ 46
**Kurbonova Raxima Jamshedovna**

Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakarlarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati.......... 49
**Narziyev Umidjon Baxrillayevich**

Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar ............ 54
**Marufhanov Davron Xasanovich**

Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка ................ 58
**Юсуфов Асфандиёр Элдор угли**

Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari ............................. 63
**Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich**

Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiyasi ......................................... 67
**Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich**

"Intellektual mulk", "Intellektual kapital", "Nomoddiy aktiv" tushunchalari o'rtasidagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik ...................................................................................................... 73
**N.D.Maxmudova**

Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili .................................................................................................................................. 77
**Iskandarov Kudrat Shuxratovich**

Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ........................................... 83
**Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich**

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi ........................................................................................................................................ 87
**Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi**

Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar................................ 91
**Qosimova Lola Sultanovna**

Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari ........................................................................................................................................ 96
**Xursandov Komiljon Maxmatkulovich**

Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar............................................................................................. 100
**Rajabov Alibek Xushnudbekovich**

Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms ........ 106
Primova Shakhnoza Komiljonovna

Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozoridagi rivojlanish tendensiyalari ........ 110
Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi

Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review ........ 120
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi

Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta’sirini baholash ........ 124
Tursunpo‘latov Sohibnazar Kasimjon o‘g‘li

Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili ........ 131
Ismoyilov I.B., Qayumov J.A., Ismoyilov F.B., Qo‘ldoshev E.I.

Mahalla instituti asosida kambag‘allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi ........ 137
Baratov J.N.

Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini tashkil etish mexanizmlari ........ 144
To‘ychiyev Otabek Shamshiyevich

Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики ........ 150
Далиев Ахтам Шарафутдинович

Harbiy ta’lim muassasalarida mashg‘ulotlarni tashkil etishda intellektual o‘qitish tizimlarining roli ........ 154
Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich

Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha xorij tajribasi ........ 160
Xoshimov Og‘abek Nizomjon o‘g‘li

Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari ........ 169
Yuldasheva Kamola Miraliyevna

Jismoniy shaxslardan undiriladigan “daromad” solig‘ining iqtisodiy tahlili ........ 173
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi

Hududlarda inson salohiyatini takomillashtirish yo‘llari ........ 180
Tojiyeva Muhayyo Valiyevna

Banklar reytingini prognoz qilishning ekonometrik tahlili ........ 188
Karabaev Nodir Abduhamidovich

Raqamli iqtisodiyot rivojida yangi bank xizmat turlarini rivojlantirish istiqbollari ........ 201
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevna

O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va o‘rta muddatli soliq-budjet siyosatining ahamiyati ........ 207
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich

Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash muammolari va ularni raqamli texnologiyalar orqali bartaraf etish yo‘llari ........ 211
Mirpulatova Luiza Mansurovna

O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlari tahlili ........ 216
Xatamov Nurbek Ochildiyevich

O‘zbekiston turizm sohasida innovatsion faollikni oshirishning shakllari ........ 222
Xaitov Oxunjon Nomoz o‘g‘li

Turizm va mehmonxona industriyasida xizmatlar sifatini oshirishda yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida innovatsiyalar va tadbirkorlik amaliyotining o‘rganilishi ........ 227
Kamolova Mohinur Iskandarovna

Davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosati ........ 239
Suyunov Otabek Shuxrat o‘g‘li

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

Big data и искусственный интеллект как драйверы цифровой экономики ..... 242
**Бозорова Ирина Жуманазаровна**

Mahalliylashtirish asosida mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tahlili va rivojlantirish istiqbollari (Namangan viloyati misolida) ..... 247
**Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich**

Temir yo'l transportida yo'llarni ta'mirlash korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish ..... 254
**Allabergenov Sherzod Maksudbayevich**

Актуальные вопросы финансирования инвестиционных проектов ..... 259
**Шомуродов Равшан Турсункулович. Рашидова Дилфуза Ганиевна**

Milliy darajada iqtisodiy xavfsizlikning ekologik omillari ..... 266
**Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li**

Zamonaviy texnologiyalar va raqamli yondashuvlarning individuallashtirilgan xizmatlarda tutgan o'rni ..... 276
**Raxmatov Aziz Tolipovich**

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar omillardan samarali foydalanish ..... 280
**Uskenbayeva Dilnoza Boxodir qizi**

Mahalliy moda brendlarini iste'molchilar kiyinish imijiga ta'sirini ekonometrik baholash ..... 286
**Tuxtayeva Oydinoy Normamatovna**

Moliyaviy innovatsiyalarni banklarga joriy etishning afzalliklari ..... 290
**Makhmudova Mukhlisa Kodirjon kizi**

Kichik biznesni innovatsion rivojlantirish strategiyasi ..... 295
**Muxitdinov Shuxrat Ziyavitdinovich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida parrandachilikni rivojlantirishni modellashtirish usullari ..... 299
**Bobomuratov Imomkul Islamovich**

Mehnat resurslaridan foidalanishning xususiyiyatlari va tashkil etish mezonlari ..... 306
**Kobilova Zebo Bobokulovna**

Зелёное бюджетирование как инструмент повышения эффективности управления государственными финансами ..... 311
**Наимов Шохрух Шарофиддинович**

Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitiga oid ilmiy nazariy qarashlar ..... 318
**Donaboyev Jahongir Husan o'g'li**

Особонности создание полимерных композиционных материалов на основе вторичного сырья ..... 324
**Маджидов Абдинаби Аманович**

O'zbekistonning BMT "Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi"dagi o'rnini yaxshilash choralari ..... 330
**Umarova Durdona Abdumannabovna**

Ekologik auditning axborot bilan ta'minlanishi ..... 335
**Abdullayev Xurshidjon Nazrullo o'g'li**

Анализ механизмов управления и контроля финансовыми ресурсами на предприятиях с государственной долей, на примере АО "Узметкомбинат" ..... 340
**Ахмедов Дилшод Турсункулович**

O'zbekiston Respublikasida QQS ma'murchiligi amaliyoti tahlili ..... 347
**Eshkarayev Bobir Chariyevich**

Сравнительный анализ отечественных и зарубежных подходов к оценке финансовой устойчивости компаний ..... 354
**Утемуратова Магрифа Пердебаевна**

Uy - joy kommunal xo'jaligi sohasida innovatsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini yanada takomillashtirish ..... 359
**Berdiyeva Dilfuza Axatovna, Matkomilov Mirjalol Mirkomil o'g'li**

Namangan viloyatida nodavlat maktablar salohiyati........ 363
**Abdusattorov Sodiqjon Hakimjon o‘g‘li**

Kimyo sanoatida loyihalarni baholash va monitoring qilishning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri........ 369
**Sabirov Oybek Shavkatbekovich**

Gaz va gazkondensatning harakatlanish qobiliyatini oshirish usullar tahlili ........ 374
**Abdirazakov Akmal Ibragimovich, Boymurodov Boynazar Muradillayevich**

O‘zbekiston sharoitida Agile davlat boshqaruvining kelajak istiqbollari ........ 379
**Sayfiyev Jasur Ravshanovich**

Bank korporativ boshqaruv samaradorligi va uning moliyaviy ko‘rsatkichlari........ 384
**Temirov Abdulaziz Alimjanovich**

Tijorat banklarining moliyaviy risklari ........ 390
**Suxrob Narzullayevich Xolmatov**

# TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY RISKLARI

**Suxrob Narzullayevich Xolmatov**
PhD, Qarshi davlat texnika universiteti
“Moliya va Bank ishi” kafedrasi dotsenti v.b.
https://orcid.org/0009-0003-1865-1522
e-mail: suxrobbekxolmatov@gmail.com

Annotatsiya: Tijorat banklarining moliyaviy risklarini boshqarish bank faoliyatining muhim jihatlarini tashkil etadi. Ushbu maqolada tijorat banklarining moliyaviy risklari (kredit riski, bozor riski, likvidlik riski, operatsion riski) va ularni samarali boshqarish usullari tahlil qilingan. Har bir risk turi o‘ziga xos boshqaruv strategiyalariga ega bo‘lib, ular banklarning iqtisodiy barqarorligini saqlash va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga yordam beradi. Moliya sohasidagi global o‘zgarishlar va innovatsion usullarni hisobga olgan holda, banklarning risklarni boshqarishdagi zamonaviy yondashuvlari muhim ahamiyatga ega. Maqola tijorat banklarining moliyaviy risklarni samarali boshqarishning asosiy metodlari va strategiyalarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Tijorat banklari, moliyaviy risklar, risklarni boshqarish, kredit riski, bozor riski, likvidlik riski, operatsion riski, Value at Risk (VaR), portfelni diversifikatsiya qilish, moliyaviy barqarorlik.

Abstract: Financial risk management in commercial banks is a crucial aspect of their operations. This article analyzes the financial risks (credit risk, market risk, liquidity risk, operational risk) in commercial banks and their effective management strategies. Each type of risk has specific management methods that contribute to maintaining the economic stability and successful operation of banks. Considering global financial changes and innovative methods, modern approaches to risk management in banks play an essential role. The paper presents key methods and strategies for effectively managing financial risks in commercial banks.

Keywords: Commercial banks, financial risks, risk management, credit risk, market risk, liquidity risk, operational risk, Value at Risk (VaR), portfolio diversification, financial stability.

Аннотация: Управление финансовыми рисками коммерческих банков является важным аспектом банковской деятельности. В данной статье анализируются финансовые риски коммерческих банков (кредитный риск, рыночный риск, риск ликвидности, операционный риск) и методы их эффективного управления. Каждый вид риска имеет свои стратегии управления, которые помогают банкам поддерживать экономическую стабильность и успешно функционировать. В связи с глобальными изменениями и инновационными методами в финансовом секторе современные подходы к управлению рисками банков приобретают большое значение. В статье представлены основные методы и стратегии эффективного управления финансовыми рисками коммерческих банков.

Ключевые слова: Коммерческие банки, финансовые риски, управление рисками, кредитный риск, рыночный риск, риск ликвидности, операционный риск, стоимость под риском (VaR), диверсификация портфеля, финансовая устойчивость.

## KIRISH

Tijorat banklarining moliyaviy risklari har bir bank faoliyatining ajralmas qismi bo‘lib, bankning iqtisodiy barqarorligini, daromadlarini va uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta’minlashda asosiy o‘rin tutadi. Har bir tijorat banki o‘z faoliyatini amalga oshirayotganda turli xil moliyaviy xavf-xatarlar bilan yuzma-yuz keladi. Bu risklar nafaqat bankning o‘ziga, balki iqtisodiyotning umumiy barqarorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun moliyaviy risklarni samarali boshqarish, banklarning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta’minlash uchun zarurdir.

Tijorat banklarining moliyaviy risklari keng qamrovli bo‘lib, ular kredit riski, likvidlik riski, bozor riski, operatsion riski, muvaffaqiyat riski kabi turli xil kategoriyalarga bo‘linadi. Har bir risk turi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bank faoliyatining turli jihatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, kredit riski bankning qarz berish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, mijozlarning qarzlarni qaytarish qobiliyatidan kelib chiqadigan xavflarni o‘z ichiga oladi. Likvidlik riski esa, bankning qisqa muddatli majburiyatlarini bajarishdagi qiyinchiliklarni anglatadi. Bozor riski, aksincha, iqtisodiy sharoitlar va bozorlar o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lib, foiz stavkalari va valyuta kurslari kabi omillarga ta’sir qiladi.

Moliyaviy risklarni boshqarishning samarali strategiyalari va usullari bankning iqtisodiy barqarorligini saqlash, foyda olish va investorlarga xavfsiz imkoniyatlar taqdim etish uchun muhimdir. Shu bilan birga, bugungi kunda iqtisodiy sharoitlarning tezkor oʻzgarishi va global moliyaviy inqirozlar banklar faoliyatini yanada murakkablashtirib yubormoqda. Shunday ekan, tijorat banklarining risklarni boshqarish metodologiyalarini yanada takomillashtirish va rivojlantirish zaruriyati dolzarb masaladir.

## MAVZUGA OID DABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining moliyaviy risklarini boshqarish boʻyicha ilmiy tadqiqotlar koʻplab nazariy yondashuvlar va amaliyotlarni taqdim etadi. Bu tahlillar risklarni boshqarish usullarining samaradorligini aniqlashga yordam beradi. Quyida, tijorat banklarining moliyaviy risklarini boshqarish masalasi boʻyicha mualliflarning asosiy tahlillari keltiriladi.

Saunders va Allen (2010) kredit riskini boshqarish boʻyicha oʻzlarining tadqiqotlarida, moliyaviy inqirozdan keyingi davrda risklarni boshqarish metodlarini qayta koʻrib chiqdilar. Ular kredit riskining yangi modellari, xususan “Value at Risk” (VaR) kabi statistika usullarining samaradorligini tahlil qilishgan. Bu yondashuvlar banklarning qarz berish faoliyatini yaxshilashga xizmat qiladi va xatarlarni boshqarishda muhim rol oʻynaydi [1].

Jorion (2007) moliyaviy risklarni boshqarishning amaliy yondashuvlari va usullarini tahlil qilib, bozor riski va kredit riskini boshqarishda yangi metodlarni taqdim etdi. U risklarni baholashda turli modellarning samaradorligini koʻrib chiqdi va banklarning amaliyotida risklarni kamaytirish boʻyicha tavsiyalar berdi. Jorion oʻzining tadqiqotlarida banklarning oʻzgaruvchan bozor sharoitlarida risklarni qanday boshqarishi kerakligini koʻrsatdi [2].

Black va Scholes (1973) oʻz asarlarida bozor riski va opsionlar narxining shakllanishiga taʼsir etuvchi omillarni tahlil qildilar. Ularning modellariga koʻra, foiz stavkalari, valyuta kurslari va aksiyalar narxlari oʻzgarishlari banklar faoliyatiga katta taʼsir koʻrsatadi. Bu tahlil bozor risklarini va ularni boshqarish metodlarini chuqur oʻrganish imkoniyatini yaratdi [3].

Merton (1974) kredit riskini boshqarish va korporativ qarzlarni baholash boʻyicha oʻz tadqiqotlarida, foiz stavkalarining oʻzgarishini nazorat qilish va qarzlar portfelini diversifikatsiya qilishning samaradorligini taqdim etdi. U kredit riskini baholashda risklarni oʻlchashning zamonaviy metodlarini kiritdi va banklarning qarz portfelini boshqarish jarayonlarini oʻrgandi [4].

Bessis (2015) banklarda risklarni boshqarishning kompleks tizimini ishlab chiqqan. Uning tahlillariga koʻra, banklar turli xil risklarni boshqarishda integratsiyalashgan yondashuvni qoʻllashlari kerak. U kredit, bozor, likvidlik va operatsion risklarni birgalikda boshqarishning samarali metodlarini muhokama qiladi. Bessis, shuningdek, banklarda ichki nazorat tizimlarini mustahkamlash zarurligini taʼkidlaydi [5].

Abduazizov (2018) Oʻzbekistondagi tijorat banklarining moliyaviy risklarini boshqarish metodlarini oʻrgandi. U kredit riskini baholash, likvidlikni boshqarish va operatsion risklarni kamaytirish boʻyicha amaliy takliflar berdi. Tadqiqotda, banklarning risklarni boshqarishdagi muammolarini va ularni samarali boshqarish strategiyalarini taqdim etgan [6].

Kozlov (2019) Rossiya banklarida moliyaviy risklarni boshqarish tizimi va kredit portfelini diversifikatsiya qilishni tahlil qildi. U Rossiya banklarida risklarni kamaytirish uchun qoʻllaniladigan innovatsion metodlarni va samarali boshqaruv tizimlarini koʻrib chiqdi [7].

Yusupov (2020) Qozogʻiston banklarida moliyaviy risklarni boshqarishning yangi tendensiyalarini oʻrganib chiqdi. Tadqiqotda, risklarni baholash va strategik qarorlar qabul qilishda qoʻllaniladigan zamonaviy yondashuvlar, shuningdek, banklarda innovatsion metodlarni joriy etish zarurligi tahlil qilindi [8].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tijorat banklarining moliyaviy risklarini boshqarish amaliyoti oʻrganilib, xorijiy mamlakatlardagi klassik va zamonaviy yondashuvlar tahlil qilindi. Empirik tadqiqotlar, nazariy adabiyotlar va statistik maʼlumotlar asosida solishtirma tahlil va tizimli yondashuv metodlari qoʻllanildi. Tadqiqotda banklar oʻrtasidagi risklarni boshqarish tizimlari, samarali strategiyalar va innovatsion yondashuvlar oʻrganildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarining moliyaviy risklarini boshqarish – bu zamonaviy bank amaliyotining eng muhim jihatlaridan biridir. Banklar oʻz faoliyatida bir nechta moliyaviy risklarga duch keladilar, masalan, kredit riski, bozor riski, operatsion riski va likvidlik riski. Har bir risk turiga nisbatan boshqaruv strategiyalari va usullari ishlab chiqilgan boʻlib, ularning samarali amalga oshirilishi bankning moliyaviy barqarorligini taʼminlashda muhim rol oʻynaydi.

Kredit riski banklar uchun eng katta xavf hisoblanadi. Bu risk, odatda, qarz oluvchining qarzni qaytara olmasligi yoki kredit shartlarining buzilishi bilan bog'liq. Shunday qilib, tijorat banklari qarzlarni baholashda risklarni kamaytirish usullarini ishlab chiqishlari zarur. Xususan, kredit skoringi va kredit tarixini tahlil qilish orqali banklar kredit riski darajasini aniq belgilashga harakat qiladilar. Bunday yondashuvlar, o'z navbatida, kredit portfeli sifatini oshirishga yordam beradi va zararlar miqdorini kamaytiradi.

Bozor riski – bu aktivlarning narxi yoki qiymatining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan xatarlar to'plami. Bu risk turiga foiz stavkalarining o'zgarishi, valyuta kurslarining tebranishi va aksiyalarning narxi o'zgarishi kiradi. Bozor risklarini boshqarish uchun banklar ko'pincha derivativlar kabi himoya vositalaridan foydalanadilar. VaR (Value at Risk) kabi modellardan foydalanish orqali bozor risklarini baholash va boshqarish imkoniyatlari mavjud.

Operatsion risk – bu bankning ichki tizimlaridagi xatoliklar, texnologik nosozliklar yoki xodimlarning noto'g'ri faoliyatidan kelib chiqadigan risklarni anglatadi. Bunday risklar odatda bankning kundalik faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Banklar operatsion risklarni kamaytirish uchun ichki nazorat tizimlarini kuchaytiradilar va xodimlar treninglarini tashkil etadilar. Shuningdek, texnologik yangilanishlar va raqamli transformatsiyalar orqali operatsion risklarni nazorat qilish yanada osonlashmoqda.

Likvidlik riski – bu bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajara olish imkoniyatiga ta'sir qiluvchi xatarni anglatadi. Likvidlik riskini boshqarish uchun banklar muntazam ravishda o'z balanslarini va moliyaviy oqimlarini tahlil qilib, likvidlik rejalari va kengaytirilgan kredit liniyalari orqali zudlik bilan mablag' olish imkoniyatlarini yaratadilar. Shuningdek, banklar o'z mablag'larini samarali boshqarib, qisqa muddatli va uzoq muddatli likvidlikni ta'minlashga intiladi.

Tahlil natijalariga ko'ra, tijorat banklarining moliyaviy risklarini boshqarish jarayonida tizimli yondashuv va kompleks metodlar qo'llanilishi zarur. Banklar o'z risklarini aniq belgilash va har bir turdagi riskga qarshi alohida strategiyalar ishlab chiqish orqali samarali boshqaruvni amalga oshiradilar. Risklarni diversifikatsiya qilish va optimallashtirish, kredit va bozor risklarini boshqarishda integratsiyalashgan yondashuvlar, shuningdek, likvidlikni nazorat qilishga qaratilgan chora-tadbirlar banklar uchun muvaffaqiyatli va samarali bo'ladi.

Moliyaviy risklar – bu iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan va banklar, kompaniyalar yoki boshqa moliyaviy tashkilotlar uchun zarar yetkazishi mumkin bo'lgan noxush holatlar va hodisalardir. Zamonaviy moliyaviy risklar ancha murakkablashgan va globalizatsiya jarayonlari, yangi moliyaviy asboblar va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan o'zgarib bormoqda. Quyidagi risk turlari hozirda eng keng tarqalgan (1-jadval).

1-jadval Moliyaviy risklar va ularni boshqarish metodlari[1]

| Risk turi | Tavsifi | Boshqarish metodlari |
|---|---|---|
| Kredit riski | Bank yoki moliyaviy institutning qarz berishda o'z majburiyatlarini bajarmaydigan mijozlardan zarar ko'rish ehtimoli. | - Kredit skoringi (Credit Scoring) |
| | | - Kredit portfelini diversifikatsiya qilish |
| | | - VaR (Value at Risk) modeli |
| Bozor riski | Bozor o'zgarishlari (foiz stavkalari, valyuta kurslari, aksiyalar va boshqa moliyaviy asboblar narxlarining o'zgarishi). | - Derivativlar (Options, Futures, Swaps) |
| | | - Hedging (Himoya qilish) |
| | | - VaR modeli (Value at Risk) |
| Likvidlik riski | Bank yoki moliyaviy institut o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajara olmasligi xavfi. | - Likvidlik rejalari |
| | | - Ochiq pozitsiyalarni boshqarish |
| | | - Stress-testlar |
| Operatsion riski | Bankning ichki tizimlaridagi xatoliklar, texnologik nosozliklar yoki xodimlarning noto'g'ri faoliyatidan kelib chiqadigan risklar. | - Ichki nazorat tizimlari |
| | | - Texnologik yangilanishlar |
| | | - Xodimlar treninglari |
| Kredit portfel riski | Bankning umumiy kredit portfelidagi risklarni boshqarish bilan bog'liq xatarlar. | - Portfelni diversifikatsiya qilish |
| | | - Riskni qiymatlash |

Moliyaviy risklarni boshqarish zamonaviy tijorat banklarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun muhim omil hisoblanadi. Jadvalda keltirilgan turli moliyaviy risklar va ularga qarshi qo'llaniladigan boshqaruv metodlari banklarning strategik qarorlar qabul qilishida muhim o'rin tutadi.

Birinchi risk turi bo'lgan kredit riski, banklar va moliyaviy institutlar uchun eng xavfli turlardan biridir. Bu risk, qarz oluvchilarning o'z majburiyatlarini bajarmaslik yoki kechiktirish natijasida yuzaga keladi. Kredit riski boshqaruvining asosiy metodlari sifatida kredit skoringi va portfelni diversifikatsiya qilish keltiriladi. Kredit

1 Emperik adabiyotlar tahili asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

skoringi mijozning kredit tarixini baholash orqali, qarz berishda xavflarni kamaytirish imkonini beradi. Portfelni diversifikatsiya qilish esa qarzlarni turli sohalar va guruhlarga taqsimlash orqali riskni tarqatishga yordam beradi. Bundan tashqari, VaR modeli kredit riski uchun zararni baholashda samarali vosita boʻlib, banklarga minimal zararni aniqlashga yordam beradi.

Bozor riski esa bozor sharoitlaridagi oʻzgarishlar, masalan, foiz stavkalari, aksiyalar va valyuta kurslarining siljishi bilan bogʻliq. Bu riskni boshqarishda banklar derivativlar (options, futures, swaps) va hedging texnikalaridan keng foydalanadilar. Derivativlar bozor oʻzgarishlariga qarshi himoya qilishda ishlatiladi, VaR modeli esa bozor riskini baholashda yordam beradi, bu orqali banklar maksimal zarar chegarasini aniqlay oladi.

Likvidlik riski bankning oʻz majburiyatlarini bajarish uchun zarur naqd pul yoki qisqa muddatli moliyaviy resurslarning yetishmasligi bilan bogʻliq. Bu riskni boshqarish uchun likvidlik rejalari va stress-testlar qoʻllaniladi. Stress-testlar, moliyaviy inqiroz yoki iqtisodiy bohronlar sharoitida banklarning faoliyatini sinovdan oʻtkazishga yordam beradi. Shuningdek, banklar ochiq pozitsiyalarni boshqarish orqali naqd pulni va moliyaviy resurslarni optimallashtirishga intiladi.

Operatsion riski bankning ichki tizimlaridagi xatoliklar yoki xodimlarning notoʻgʻri faoliyatidan kelib chiqadigan riskdir. Bu turdagi risklarni boshqarishda ichki nazorat tizimlari va texnologik yangilanishlar muhim ahamiyatga ega. Banklar oʻz faoliyatida tizimli ravishda xatoliklarni oldini olish uchun nazorat mexanizmlarini yaratadilar. Shuningdek, xodimlarni treninglar bilan ta’minlash operatsion xatoliklarni kamaytirishga yordam beradi.

Kredit portfel riski esa bankning umumiy kredit portfelidagi risklarni boshqarish bilan bogʻliq. Kredit portfeli turli sohalar va mijozlarga qarz berilishi orqali diversifikatsiya qilinadi, bu esa risklarni kamaytiradi. Shuningdek, portfel risklarini baholash va har bir qismini tahlil qilish orqali banklar xavflarni samarali boshqarishi mumkin.

Shunday qilib, jadvalda koʻrsatilgan har bir moliyaviy risk turi va uning boshqarish metodlari tijorat banklari uchun muhim va samarali vositalar hisoblanadi. Bu metodlar banklarning xavf-xatarlarni aniqlash va minimallashtirishga yordam beradi, shu bilan birga ularning barqaror va xavfsiz faoliyat yuritishini ta’minlaydi. Har bir metodning samarali qoʻllanilishi banklar uchun iqtisodiy barqarorlikni va raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlil va metodlarni inobatga olgan holda, moliyaviy risklarni boshqarish tijorat banklarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishining asosi sifatida qaraladi. Har bir risk turi — kredit, bozor, likvidlik, operatsion va kredit portfel riski — oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib, ularning har biri oʻzining maxsus boshqaruv metodlari orqali samarali tarzda boshqarilishi kerak.

Kredit riski banklar uchun eng katta xavf turlaridan biri boʻlib, uning boshqarilishi uchun kredit skoringi, portfel diversifikatsiyasi va VaR modeli kabi metodlar zarur. Bu metodlar mijozlarning qarzlarni oʻz vaqtida toʻlashini ta’minlashda va kredit faoliyatini xavfsiz amalga oshirishda muhim rol oʻynaydi. Kredit portfelini diversifikatsiya qilish riski tarqatish orqali banklarning qarz portfelini muvozanatlashishga yordam beradi.

Bozor riski bozor oʻzgarishlari va narxlarning siljishidan kelib chiqadigan xavflarni anglatadi. Derivativlar va hedging texnikalari banklarni bozorning salbiy oʻzgarishlaridan himoya qilishga imkon beradi, VaR modeli esa bozor riskining maksimal zararini aniqlashda qoʻllaniladi. Bu metodlar banklarga bozordagi noaniqliklarni nazorat qilish va kelajakda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan zararlarni kamaytirish imkonini beradi.

Likvidlik riski banklarning qisqa muddatli majburiyatlarini bajarish uchun zarur boʻlgan naqd pulning yetishmasligi bilan bogʻliq boʻlib, bu xavfni boshqarishda likvidlik rejalari va stress-testlar muhim vositalardir. Stress-testlar banklarning moliyaviy inqirozlar va iqtisodiy beqarorlik sharoitida qanday harakat qilishini aniqlashga yordam beradi, bu esa ularga oʻz faoliyatini optimallashtirish imkonini beradi.

Operatsion riski bankning ichki tizimlaridagi nosozliklar yoki xodimlarning xatolari natijasida yuzaga keladigan xavflarni anglatadi. Bunday risklarni boshqarish uchun banklar ichki nazorat tizimlari va texnologik yangilanishlar orqali samarali yechimlar yaratadilar. Xodimlar treninglarini oʻtkazish esa operatsion xatoliklarni kamaytirishga yordam beradi va banklar ichki tizimlarini yanada kuchaytiradi.

Kredit portfel riski bankning umumiy kredit portfelidagi risklarni boshqarishga qaratilgan boʻlib, portfelni diversifikatsiya qilish va risk qiymatlash usullari orqali samarali boshqariladi. Diversifikatsiya qarzlarning turli sohalarga taqsimlanishi orqali xatarni kamaytirishga yordam beradi, bu esa bankning umumiy portfel xavfini pasaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tijorat banklari uchun moliyaviy risklarni boshqarish jarayoni har doim dinamik va muhim hisoblanadi. Banklar risklarni samarali boshqarish orqali nafaqat oʻz faoliyatini xavfsiz va barqaror saqlash, balki iqtisodiy oʻsish va raqobatbardoshlikni ta’minlash imkoniyatiga ega boʻladilar. Har bir risk turi va unga tegishli boshqaruv metodlari banklarning strategik qarorlarida oʻz aksini topishi lozim, bu esa ularga bozor sharoitlarining oʻzgarishiga moslashishda yordam beradi. Shuning uchun, moliyaviy risklarni

boshqarish amaliyoti zamonaviy banklar uchun asosiy boshqaruv instrumenti bo'lib, ularning barqarorligi va muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

## Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. Saunders, A., Allen, L. Credit Risk Management In and Out of the Financial Crisis: New Approaches to Value at Risk and Other Paradigms / A. Saunders, L. Allen. – Wiley, 2010. – 512 p.
2. Jorion, P. Financial Risk Management: A Practitioner's Guide to Managing Market and Credit Risk / P. Jorion. – McGraw-Hill, 2007. – 389 p.
3. Black, F., Scholes, M. The Pricing of Options and Corporate Liabilities / F. Black, M. Scholes. – Journal of Political Economy, 1973. – Vol. 81, No. 3, pp. 637–654.
4. Merton, R. C. On the Pricing of Corporate Debt: The Risk Structure of Interest Rates / R. C. Merton. – Journal of Finance, 1974. – Vol. 29, No. 2, pp. 449–470.
5. Bessis, J. Risk Management in Banking / J. Bessis. – Wiley, 2015. – 520 p.
6. Абдуазизов, Б. Методология и практика управления финансовыми рисками в банках / Б. Абдуазизов. – Ташкентский государственный университет экономики, 2018. – 250 с.
7. Козлов, А. В. Управление рисками в коммерческих банках России / А. В. Козлов. – Москва: Российский экономический университет, 2019. – 300 с.
8. Юсупов, Р. А. Управление финансовыми рисками в банках: методы и тенденции / Р. А. Юсупов. – Алматы: Казахский национальный университет, 2020. – 280 с.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. № 9**

© Materiallar koʻchirib bosilganda “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali 26.06.2023-yildan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №S–5669245 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy**

+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100